

DISLALIYA VA UNING LOGOPEDIK KORREKSIYASI METODLARI.

Abdurahimova Nozima Fazliddin qizi

University of Business and Science

Mahsus pedagogika 24-01-guruh talabasi

E-mail: Nozimaabdurahimova@gmail.com

Annatatsiya: Ushbu maqolada dislaliya tushunchasi, uning etiologik sabablari, klinik-tasnifiy ko‘rinishlari hamda logopedik korreksiya jarayonidagi samarali metodlar yoritilgan. Maqolada ilmiy manbalar asosida dislaliya bilan og‘rigan bolalarda tovush talaffuzi buzilishining ruhiy, fiziologik va ijtimoiy oqibatlari ham tahlil qilinadi. Logopedik mashg‘ulotlar tizimining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va individual yondashuvning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: dislaliya, logopedik korreksiya, artikulyatsion mashqlar, fonematik eshituv, nutq terapiyasi, differensial yondashuv.

ДИСЛАЛЯ И МЕТОДЫ ЕЕ ЛОГОПЕДИЧЕСКОЙ КОРРЕКЦИИ.

Аннотация: В статье рассматривается понятие дислалии, её причины, клиническая классификация и эффективные методы логопедической коррекции. На основе научных источников анализируются психологические, физиологические и социальные последствия нарушений звукопроизношения у детей. Подчеркивается важность индивидуального и дифференцированного подхода в коррекционной работе логопеда.

Ключевые слова: дислалия, логопедическая коррекция, артикуляционные упражнения, фонематический слух, речь, индивидуальный подход.

DYSLALYA AND METHODS OF ITS LOGOPEDIC CORRECTION.

Abstract: This article explores the concept of dyslalia, its etiological factors, clinical classification, and effective methods of speech therapy correction. Based on scientific sources, the article examines the psychological, physiological, and social

consequences of speech sound disorders in children. It also provides a structured approach to logopedic intervention and highlights the importance of individual and differentiated correctional techniques.

Keywords: dyslalia, speech therapy, articulation exercises, phonemic hearing, speech correction, differentiation.

Kirish

Nutq insonning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi, muloqotga kirishishi hamda tafakkurini rivojlantirishida muhim vosita hisoblanadi. Nutqning to'g'ri shakllanmasligi esa bolaning psixik rivojlanishi, ta'lim jarayoni va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois nutq nuqsonlarini erta aniqlash va ularni samarali bartaraf etish zamonaviy logopediya fanining dolzarb masalalaridan biridir. Zamonaviy ta'lim tizimida nutq nuqsonlarini aniqlash va bartaraf etish logopediyaning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Dislaliya — bu nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qila olmaslik bilan tavsiflanadigan, lekin eshitish, aqliy va artikulyatsion apparati normal bo'lgan bolalarda uchraydigan nutq buzilishi hisoblanadi. Psixologik-pedagogik va fiziologik jihatdan dislaliya bolaning umumiy muloqot ko'nikmasiga, o'ziga ishonchiga hamda ijtimoiy adaptatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq buzilishlari orasida **dislaliya** eng ko'p uchraydigan kamchiliklardan biri bo'lib, u eshitish qobiliyati va nutq apparati normal bo'lgan holatda ayrim tovushlarning noto'g'ri talaffuz qilinishi bilan tavsiflanadi. Dislaliya bolalarda tovushlarni tushirib qoldirish, almashtirish yoki buzib talaffuz qilish shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu nuqson o'z vaqtida tuzatilmasa, bolaning yozma nutqida ham xatoliklarga olib kelishi, o'qish va yozish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin. Dislaliyani korreksiya qilish jarayoni izchil bosqichlarda olib borilib, u artikulyatsion apparatni tayyorlash, tovushlarni to'g'ri qo'yish, ularni avtomatlashtirish va farqlashga qaratilgan mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Logopedik metodlar bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlanadi hamda o'yin, mashq va didaktik materiallar yordamida amalga oshiriladi.

DISLALIYA VA UNING LOGOPEDIK KORREKSIYASI.

1. Dislaliyaning ilmiy ta'rifi va tasnifi

Dislaliya termini haqida dastlab Yevropaning Vilnyus universiteti shifokori, professor I. Frank ilmiy muomalaga kiritgan. Shundan so'ng XIX asrning 30-yillarida shveysariyalik shifokor R. Shultess ham o'z ishlariida "dislaliya" terminini qo'llagan. U dislaliyani faqat talaffuz buzilishi, ya'ni artikulyatsion organlarning anatomik nuqsonlari bilan bog'liq holat sifatida ta'riflagan. Polyak tadqiqotchisi V. Oltushevskiy dislaliyani nutq apparatining anatomik nuqsonlari bilan bog'liq bo'lmagan talaffuz buzilishlari sifatida tavsiflagan. Ilmiy manbalarga ko'ra dislaliya ikki asosiy turga bo'linadi. Mexanik dislaliya artikulyatsion apparatning anatomik nuqsonlari (til osti chig'anog'i qisqaligi, tishlararo nuqsonlar, tanglay deformatsiyasi) tufayli paydo bo'ladi. Funktsional dislaliya tovush talaffuzi buzilishi asosan fonematik eshituv yoki artikulyatsion harakat koordinatsiyasining buzilishi bilan bog'liq bo'ladi. Ko'pgina logopedlar dislaliyaning monomorf va polimorf shakllarini farqlaydilar. Monomorf shaklda faqat bitta tovush noto'g'ri talaffuz qilinadi, polimorf shaklda esa bir necha tovushlarda nuqson mavjud bo'ladi. Dislaliya davolashda asosiy usul bu nutq terapiyasidir. Nutq terapevti tomonidan amalga oshiriladigan mashqlar yordamida bolaning talaffuzini yaxshilash va nutqni to'g'ri qurishga o'rgatish mumkin. Tovushni to'g'ri talaffuz qilish mashqlari: Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish bo'yicha mashqlar, ayniqsa, artikulyatsiya mashqlari yordamida www.worldlyjournals.com. 9-son, Dekabr, 2024. Worldlyknowledgenashriyoti. 206 tovushlarni aniq va to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish mumkin. Fizik terapiya: Ba'zi hollarda, og'izva til mushaklarini mustahkamlash uchun maxsus mashqlar va fizik terapiya talabqilinadi. Psixologik yordam: Nutq muammolari psixologik bosim yoki o'ziga ishonchsizlikni keltiribchiqarishi mumkin. Bunday holatlarda, psixologik yordam va o'z-o'zini qabul qilish bo'yichamaslahatlar foydali bo'lishi mumkin.

2. Logopedik korreksiya bosqichlari

Dislaliya bilan ogʻrigan bolalar bilan ishlash logopedik mashgʻulotlarda 4 bosqichda olib boriladi. Bu boshlangʻich bosqich boʻlib, unda bolaning (yoki shaxsning) nutq holati batafsil oʻrganiladi. Logoped nutqning barcha tomonlarini — tovush talaffuzi, fonematik eshituv, lugʻat boyligi, grammatik tuzilish va bogʻlangan nutqni tekshiradi. Shuningdek, bolaning psixologik va fiziologik xususiyatlari ham hisobga olinadi. Ushbu bosqichda **nutq nuqsonining turi, darajasi va sabablari aniqlanadi** hamda individual korreksion reja tuziladi.

- Tayyorlov bosqichi bolaning artikulyatsion apparatini harakatga keltirish, til, lab va jagʻ mushaklarini mustahkamlash. Bu bosqich korreksiyaga zamin yaratadi. Unda artikulyatsion apparat til, lab, jagʻ, mashqlari, nafas va ovoz mashqlari, mayda motorikani rivojlantirish ishlari olib boriladi. Fonematik eshituvni rivojlantirish ham muhim oʻrin tutadi. Asosiy maqsad **nutq apparatini korreksiyaga tayyorlash va bolaning mashgʻulotga boʻlgan qiziqishini oshirish.**

- Tovushni toʻgʻri hosil qilish bosqichi notoʻgʻri talaffuz qilinayotgan tovushni izolyatsiyada toʻgʻri shakllantirish

- Tovushni nutqqa kiritish bosqichi oʻrganilgan tovushni boʻgʻin, soʻz, soʻz birikmasi va gaplarda mustahkamlash. U yakuniy bosqichda oʻrganilgan koʻnikmalar kundalik nutqda mustahkamlanadi. Bola erkin muloqotda, oʻyin, suhbat va hikoya tuzishda toʻgʻri nutqdan foydalanishga oʻrgatiladi. Ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlik qilinadi. Asosiy vazifa **nutq kamchiliklarining qaytalanishining oldini olish** va natijani barqarorlashtirish.

- Avtomatlashtirish va differentsiallashtirish bosqichi bola oʻz nutqida tovushni mustaqil toʻgʻri ishlata oladigan darajaga yetkazish. Bu bosqichlar oʻzaro uzviy bogʻliq boʻlib, har bir bola uchun individual yondashuv asosida olib boriladi. Bu eng muhim bosqich hisoblanadi. Unda nutqdagi mavjud nuqsonlar bevosita tuzatiladi: tovushlar

to'g'ri qo'yiladi, avtomatlashtiriladi va farqlash ishlari olib boriladi. Lug'at boyligi kengaytiriladi, grammatik jihatdan to'g'ri nutq shakllantiriladi, bog'langan nutq rivojlantiriladi. Mashqlar muntazam va tizimli tarzda bajariladi. Maqsad **to'g'ri va ravon nutqni shakllantirish.**

3. Artikulatsion va fonematik mashg'ulotlarning ahamiyati

Artikulatsion mashqlar — til, lab, yumshoq tanglay mushaklarini harakatga keltiruvchi maxsus jismoniy mashqlardir. Ot, kapalak, soat, til o'yinlari mashqlari orqali bola talaffuz organlarini faollashtiradi. Fonematik eshituvni rivojlantirish mashqlari esa tovushlarni farqlash, eshitish orqali ularni to'g'ri idrok etish qobiliyatini kuchaytiradi. Bu ikki yondashuv uyg'unligi dislaliya korreksiyasida yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

4. Zamonaviy yondashuvlar

Bugungi kunda logopediyada raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan dasturlar "Logomir", "SpeechTools", "Articulatory Trainer" yordamida interaktiv mashg'ulotlar o'tkazilmoqda. Shuningdek, musiqiy ritmika, o'yin asosidagi mashqlar, psixologik qo'llab-quvvatlash elementlari korreksion jarayonni yanada samarali qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Yuqoridagi manbalar dislaliya va uning korreksiyasi bo'yicha nazariy va metodik jihatlar bilan tanishish imkonini beradi. Dislaliya — bu nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qila olmaslik bilan tavsiflanadigan, lekin eshitish, aqliy va artikulyatsion apparati normal bo'lgan bolalarda uchraydigan nutq buzilishi hisoblanadi.

O'zbekiston konteksti: O'zbekiston Logopedik konteksti — Kontekst doirasida tadqiqotlar nafaqat nutqdagi nuqsonni tuzatish, balki bolaning umumiy psixologik va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Nutq

tovushlarini to'g'ri shakllantirish, artikulyatsion apparatni rivojlantirish va fonematik eshitishni o'stirishga qaratilgan tizimli mashg'ulotlar majmuasidir.

Ilmiy tadqiqotlar: Mubarakova M. B., Bekmanova J. A. “Коррекция нарушений звукопроизношения у дошкольников с дислалией” Maqola bolalar maktabgacha yoshda (doshkól'nik) dislaliyasi bo'lgan guruhda o'tkazilgan logopedik korreksiya ishini ko'rib chiqadi. Qisqacha tavsifi: artikulyatsion motôrika, eshituv-analizator sistemalari, o'yin metodi va “kompleks ta'sir printsipti” kabi yondashuvlar ishlatilgan. Amaliy jihati: bolalar bilan korreksiya mashg'ulotlari tajribasi keltirilgan. Agar dislaliya tibbiy muammolar (masalan, eshitish muammolari yoki tishvaog'iz bo'shlig'idagi fizikal muammolar) bilan bog'liq bo'lsa, tegishli tibbiy yordamva davolanishzarur bo'lishi mumkin. Dislaliya turiga qarab, uning davolash usullari har xil bo'lishi mumkin. Eng samarali natijaga erishish uchun, vaqtida mutaxassisga murojaat qilish muhimdir. Noto'g'ritalaffuz nutq kamchiligi haqidagi birinchi ma'lumotlar qadimgi grek olimlari Plutarx, Gippokrat, Kladiya, Galen va boshqalarning ishlarida bayon qilindi. Yuqoridagi mualliflar noto'g'ri talaffuznidavolashni talab qiluvchi kasallik deb qaraydilar. Ularning fikricha, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish til, lab, qattiq va yumshoq tanglayning zararlanishi bilan bog'liq deb ko'rsatadilar.

Xalqaro tajriba: Xalqaro tajribalar dislaliya va nutq tovush buzilishlari bo'yicha turli kontekstlarda ortodontik muammolar bilan, bilingval bolalar bilan, oila hamkorligi bilan amalga oshirilgan. Logopedik korreksiya usullarini tanlashda **nutq apparati strukturalari, til va tilaro muhit, oila uy sharoiti**, va ilmdagi dalillar inobatga olish muhim. Ba'zilar metodlar haqida o'zgarishlar tanqidlar keltirgan: masalan, nonspeech og'zaki mashqlar har doim samarali emasligi haqida.

Metodologiya

Методологик asoslar; Dislaliya va uning logopedik korreksiyasini o'rganish **logopediya, psixolingvistika, defektologiya, fiziologiya va pedagogika fanlariga** tayangan holda amalga oshiriladi.

Методологик asos quyidagilarga tayanadi:

- ☐ **Psixolingvistik yondashuv** – nutq tovushlarining ishlab chiqilish jarayonini tahlil qiladi (eshitish, talaffuz, fonematik farqlash).
- ☐ **Fiziologik yondashuv** – artikulyatsion apparatning tuzilishi va funksiyasini o'rganadi.
- ☐ **Pedagogik yondashuv** – logopedik mashg'ulotlarning didaktik va tarbiyaviy tomonini belgilaydi.
- ☐ **Kompleks yondashuv** – logoped, psixolog, ota-ona va pedagog hamkorligiga asoslanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda dislaliya bolalar orasida eng keng tarqalgan nutq buzilishlaridan biri bo'lib, uning sabablari va shakllari turlicha namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dislaliyaning kelib chiqishida organik (mexanik), funksional va fiziologik omillar muhim rol o'ynaydi. Dislaliyaning turli shakllari, jumladan, sigmatizm, rotatsizm, lambdatsizm, kappatsizm, gammatsizm, xitizm va yotatsizm, tovush talaffuzidagi buzilishlarni aniqlash va tuzatishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Dislaliyaning oldini olish va

uni bartaraf etish uchun bolaning nutqiy rivojlanishini erta yoshdan kuzatish, to'g'ri nutqiy muhit yaratish hamda maxsus logopedic mashg'ulotlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, nutq apparatining to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, bola eshituv sezgirligini oshirish va to'g'ri artikulyatsiyani shakllantirish orqali dislaliyaning oldini olish mumkin. Shuningdek, logopedic yordam va maxsus pedagogik yondashuvlar orqali dislaliya bilan bog'liq nutqiy muammolarni bartaraf etish mumkin. Shu boisdan, dislaliya bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borish va samarali tuzatish usullarini amaliyotga joriy etish maxsus pedagogika va logopediya sohasida

dolzarb

Adabiyotlar:

1. Филичева Т. Б., Чиркина Г. В. Логопедия. — Москва, 2019.
2. Власова Т. А. Психология детей с нарушениями речи. — М., 2017.
3. Глухов В. П. Основы логопедии. — СПб., 2020.
4. Шахов П. Н. Психология и педагогика детей с ОВЗ. — М., 2021.
5. Xolmatova Sh. Maxsus pedagogika asoslari. — Toshkent, 2020.
6. Mamatova M. Logopedik amaliyotda innovatsion yondashuvlar. — Toshkent, 2022.
7. UNESCO. Inclusive Education and Speech Therapy Approaches. — 2022.
8. Tursunova M. Dislaliya va uning logopedik korreksiyasi. — Toshkent, 2023.
9. Blinova L. P. Korrektsionnaya pedagogika. — М., 2018.
10. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — 2021.
11. M.Ayupova "Logopediya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent2007
12. M.Qudratov, R.To'xtasinov "O'zbek tilida Dislaliya va uning turlari"